

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 64-69 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

INDIVIDUAL INVESTORLAR UCHUN INVESTITSION STRATEGIYANING AHAMIYATI



Alikulov Azamat Tuygunovich

QarMII “Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD), dotsent.
azamataliqulov@qmii.uz

Anotatsiya: Maqolada kapital bozorida individual investorlarning investitsion strategiyasini ishlab chiqishda e’tibor berishi lozim bo’lgan ba’zi jihatlar o’rganilgan. O’rganishlar natijasida investitsion strategiyada maqsadni tanlash va bozorni tahlil qilish orqali investitsiyalar bo’yicha riskni kamaytirish hamda foydani oshirish imkoniyatlari yoritib berilgan. Investitsion strategiyani ishlab chiqishda klassik yondashuvlar va xorij tajribalari o’rganilgan holda xulosalar ishlab chiqilgan hamda amaliy takliflar berilgan.

Kalit so’zlar: investitsiya, kapital, investitsion strategiya, moliyaviy instrument, maqsad, bozor tahili, fundamental tahlil, texnik tahlil, bozor kayfiyati, risk, diversifikatsiya, moliyaviy savodxonlik, robo-maslahatchi, moliyaviy texnologiyalar.

Аннотация: В статье изучена некоторые аспекты, на которые следует обратить внимание индивидуальным инвесторам при разработке инвестиционной стратегии на рынке капитала. В результате исследований выделены направления, которые необходимо обратить внимание при разработке инвестиционной стратегии для увеличения прибыли путем выбора цели, возможности снижения риска инвестиций и анализа рынка. При разработке инвестиционной стратегии были сделаны выводы и даны практические предложения путем изучены классические подходы и зарубежный опыт.

Ключевые слова: инвестиции, капитал, инвестиционная стратегия, финансовый инструмент, цель, анализ рынка, фундаментальный анализ, технический анализ, настроения рынка, риск, диверсификация, финансовая грамотность, робо-консультант, финансовые технологии

Abstract: The article examines some aspects that individual investors should pay attention by developing an investment strategy in the capital market. As a result of the research, the directions that need to be paid attention by developing an investment strategy to increase profits by choosing a goal, the possibility of reducing the risk of investments and market analysis are highlighted. During the development of the investment strategy, conclusions were drawn and practical suggestions were given, classical approaches and foreign experience were studied.

Keywords: investments, capital, investment strategy, financial instrument, goal, market analysis, fundamental analysis, technical analysis, market sentiment, risk, diversification, financial literacy, robo-consultant, fintech.

Kirish. Bugungi tez o'zgaruvchi hamda yangi tendensiyalar tez o'zlashtiriluvchi jamiyatda individual investorlar keng investitsiya imkoniyatlari hamda shu bilan kutilmagan muammoli holatlarga duch kelishlari mumkinligi investorlar uchun investitsion strategiyani ishlab chiqish zaruratini paydo qiladi. Bunday jarayonlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish hamda kapitalni eng optimal moliyaviy instrumentlarga yo'naltirish uchun bozorni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lish zarurdir.

Individual investorlarning axborotlarni olishdagi cheklangan imkoniyatlari, resurslar hamda tajriba yetishmasligi va hissiyotga beriluvchanligi kabi muammolar sababli investitsiya strategiyasini to'g'ri ishlab chiqishlarida va foydani oshirishda muammoli holatlarga duch keladilar. Shu sababli individual investorlar investitsion strategiyasini ishlab chiqishlari uchun ba'zi jihatlarni hisobga olishlari zarur. Ya'ni investitsion maqsadni to'g'ri qo'yish, risklarni boshqarish hamda portfelni diversifikatsiya qilish, bozorni tahlil qilish va o'rganish individual investorlar yo'naltirgan kapitalidan foyda olish darajasini oshirish yoki zararlarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lishlarida yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada individual investorlarning investitsion strategiyalarini ishlab chiqish jarayonlarini tashkil etish zaruratidan kelib chiqqan holda taqqoslash, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, analiz va sintez metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Individual investorlar foydani maksimallashtirishda investitsion maqsadni to'g'ri qo'yishlari investitsion strategiyani ishlab chiqishlarida muhim hisoblanadi. Maqsadni qo'yishda erishish ko'zlangan moliyaviy natijani hamda unga erishish vaqtini aniqlab olish zarur. Chunki, individual investorlar uchun qisqa muddatli maqsadlar mablag'ni jamg'arib olish, aniq bir moliyaviy instrument (keyingi o'rinlarda "instrument") ni sotib olish uchun kapitalni jamg'arishni ko'zalasa, uzoq muddatli maqsadlar esa nafaqaga chiqqanda yoki farzandlar uchun (o'qish, to'y va boshqalar) kelgusi harajatlarni amalga oshirish uchun kapital jamg'arishni tushunish mumkin. Shu kabi maqsadlardan kelib chiqib qaysi instrumentga investitsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish mumkin bo'ladi.

Risklarni boshqarish hamda portfelni diversifikatsiya qilish individual investor uchun kelgusida kelishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirishda va foydani oshirishda muhim hisoblanadi. Shu sababli individual investorlar o'z strategiyalariga risklarni boshqarishni kiritishlari zarur. Risklarni boshqarish uchun instrumentlar bilan savdolarda stop-lossni limitlarini o'rnatish [3], instrumentlarni tarmoq va turlar bo'yicha diversifikatsiya qilish va shu kabi usullardan foydalanish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari individual investorlar o'zlarining riskka bo'lgan munosabatlarini (riskni qancha qabul qila olishini) aniqlab olishlari zarur bo'ladi.


Bozorni tahlil qilish investor uchun to'g'ri yo'lni tanlashda "kompas" vazifasini o'tashi shubhasizdir. Shu o'rinda aytish joizki bozor holati, instrumentlar hamda ularning

emetentlari haqida qanchalik ko'p ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish investorning kelgusi strategik maqsadlarini qo'yishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib individual investorlar investitsion strategiyasini ishlab chiqish jarayonlarini tashkil etishni quyida sxema ko'rinishda ko'rib chiqamiz.

Individual investor uchun bozor tahlili bu kapital yo'naltirish uchun qaror qabul qilish jarayonida foydaliroq, havfsizroq hamda istiqbolli loyihani aniqlab olish imkoniyatini beruvchi jarayon hisoblanadi. Ya'ni buni bozor instrumentlaridan foydalanish ularni baholash va boshqa instrumentlar bilan solishtirish orqali eng maqbul variantni tanlashga harakat qilish deb tushinish mumkin.

Individual investorlar uchun bozor holatini tahlil qilish bir muncha murakkabliklarga ega jarayon. Chunki, borozni tahlil qilish vaqt, bilim, mablag' hamda axborotlar (ma'lumotlar) talab qiladigan jarayon hisoblanadi [2]. Shu boisdan ham individual investorda institutsional investordan ko'ra kutilmalarning aniqligi pastroq bo'lishi tabiiy hol.



1-rasm. Bozor holatini tahlil qilishning individual investorlarga yaratadigan imkoniyatlari¹

1. Investitsion imkoniyatlarni aniqlash. Bozor tendensiyalarini tahlil qilish, tarmoqlar va sohalarning o'sish dinamikasini o'rganish, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda baholash individual investorlar uchun qaysi sohaga kapital yo'naltirish to'g'ri bo'lishi mumkinligi haqida qaror qabul qilishda yordam beradi. Ya'ni tarmoqlarni solishtirish orqali ularni rivojlanish tendensiyasiga umid qilgan tarmoqqa investitsiya yo'naltirish va kelgusida yuz beradigan o'zgarishdan foyda olish imkoniga ega bo'lishi mumkin.

2. Risklarni boshqarish. Risklarni tahlil qilish investorga risklarni samarali boshqarishga yordam beradi. Investor bozor holati o'zgarish dinamikalari, riskli holatlar tarixini o'rganish orqali, risklar qaysi tebranish bosqichida qay ko'rinishda kelishi hamda risk holatlari yetkazishi mumkin bo'lgan zararlarini baholash va ularni bartaraf etish uchun xadgerlash, diversifikatsiyalash usullarini yoki sug'urta xizmatlaridan foydanlanish imkoniyatlarini tanlashini optimallashtiradi. Misol uchun iqtisodiy inqiroz davrlarida qaysi tarmoqqa tegishli instrumentlar kamroq riskli bo'lishini bilish investitsiya portfelini o'sha tarmoqlar instrumentlari bilan diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

¹ Muallif ishlanmasi

3. Foydani maksimallashtirish. Individual investorlar bozor tahlilini amalga oshirish orqali narxlar yuqori belgilangan yoki samarasiz instrumentlarni aniqlashlari va bu orqali investitsiyalarni samaraliroq instrumentlarga yo'naltirishlari zarur. Foydani maksimallashtirish uchun investorlar odatda fundamental yoki texnik tahlil orqali instrumentlarni baholashlari keng tarqalgan. Yani bu usullar bozorda kelgusida o'z yuqori moliyaviy o'sishga ega bo'lishi mumkin bo'lgan yoki instrumentlarning narxlari ijobiy o'zgarishi kutilayotgan investitsiya obyektlarini tanlab olishlarida yordam beradi va bu orqali individual investorlar foydasini ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Fond bozorida instrumentlarni tahlil qilishda investorlar asosan quydagi usullardan foydalanadi:

1. Fundamental tahlil. Ushbu yondashuvda emitentning moliyaviy holati, raqobatbardoshligi, tarmoqning istiqbolini hisobga olgan holda instrumentga baho beriladi. Ya'ni, foyda va daromadning o'sishi bozorda qancha ulushni egallashini hisobga olgan holda instrumentning haqiqiy qiymati aniqlanadi. Bozorda yuqori o'sish imkoniyatiga ega bo'lgan kompaniyani aniqlash hamda shu kabi kompaniyalarga uzoq muddatli investitsiya kiritishni maqsad qilgan investorlar asosan fundamental tahlil usulidan ko'proq foydalanadilar.

2. Texnik tahlil. Bu yondashuv esa narxlarning kelgusi o'zgarish dinamikasini bashorat qilish, instrument bilan kelgusi savdolar hajmining o'zgarishini grafiklar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlashda ishlatiladi. Narxlarning va savdo hajmining tarixiy o'zgarish dinamikasi va shu kabi indekatorlarni o'zgarish tendensiyalarini o'rganish orqali texnik tahlil usulidan foydalangan holda kelgusi holat bashorat qilinadi. Bu usuldan ko'p hollarda investorlar asosan instrumentlar bilan qisqa muddatli savdolarini amalga oshirishda foydalanadi. Ya'ni bunda qachon sotish yoki sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishlari yoki bozor holatiga baho berishda foydalaniladi.

3. Bozor kayfiyati. Bu yondashuvda bozorda boshqa investorlarning kayfiyatini tahlil qilish orqali bozor holatini o'rganishga qaratiladi. Ya'ni boshqa investorlarning fikri va ehtimolli qabul qilishi kutilayotgan qarorlarini tahlil qilish orqali bozordagi kayfiyatga baho beriladi [4]. Buning uchun ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar hamda so'rovnomalar tashkil qilish orqali boshqa investorlarning qabul qilish ehtimolli qarorlarini aniqlash va bozorning yoki aniq bir instrumentning kelgusi savdo jarayonlarini bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, bozorda spekulyatsiya va talab-taklif bozor ishtirokchilarining harakatlaridan paydo bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, boshqalarning fikrlarini bilish orqali kelgusi o'zgarish tendensiyalarini bashorat qilishning aniqlik darajasini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Individual investorlar uchun investitsion strategiyani ishlab chiqishda faqatgina qaysidir standart uslubni yoki yondashuvni bilishning o'zi yetarli bo'lmaydi balki, har bir investor o'zi uchun riskni qabul qilishi, kelgusi moliyaviy maqsadlari axborotlarni yoki yangiliklarni o'zlashtira olishi va shu kabi invididual xususiyatlar ham inobatga olishi zarur. Shu boisdan quyida individual investorlar uchun investirsion strategiya ishlab chiqishlarida qo'l kelishi mumkin bo'lgan ba'zi jihatlarni keltirdik.

- Bilimni mustahkamlash. Moliyaviy savodxonlikni doimiy oshirib borish individual investorlar uchun muhim masala bo'lib hisoblanadi. Chunki, investitsiya

jarayonlari doimiy rivojlanib o'zgarib turuvchi tendensiyalarga ega bo'lganligi sababli bu boradagi yangi axborot va bilimlarni va tarmoqlar investitsion strategiyasini o'z vaqtida bilib borish zarur.

- Texnologiyalar va instrumentlarni qo'llash. Investitsiya muhitida texnologiyalar doimiy rivojlanib borishi [1] natijasida individual investorlar uchun ko'plab instrumentlar va resurslarga egalik qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Investitsiya qilish uchun yaratilgan dasturlar portfelni nazorat qilish, savdolarni amalga oshirish va axborotlarga egalik qilishni qulay usullarda taklif etmoqda. Bundan tashqari, savdo tendensiyalarini maxsus algoritmlar yordamida tahlil qilgan holda risk va investor maqsadlaridan kelib chiqib investitsion maslahatlar berish imkoniyatiga ega Robo-maslahatchilar xizmatlari ham keng tarqalmoqda. Shuningdek, broketlik kompaniyalari yoki investitsion fondlar ham o'zlarining onlayn-oflayn xizmatlari orqali individual investorlarga investitsion yechimlarini taklif qilishmoqda. Bu imkoniyatlar individual investorlar o'zlarining kapitalini ko'paytirish, riskni kamaytirish hamda to'g'ri investitsion strategiya ishlab chiqishlarida amaliy yordam bo'lmoqda.

- Portfelni monitoringi va baholash. Investitsion portfelni doimiy monitoring qilish va baholab turish investor uchun muhim hisoblanadi [5]. Individual investorlar investitsion portfelining samaradorligini, moliyaviy hisobotlarini hamda maqsadiga erishish imkoniyatlarini doimiy hisoblab nazorat qilib turishlari zarur. Chunki salbiy holatlarda portfel tarkibini o'zgartirish kelgusi foydaning o'sishida yordam beradi.

Bozor holatini tahlil qilish investorlarga risklarni boshqarish, foydani maksimallashtirish va o'z kapitalining umrboqiyiligini oshirish imkoniyatini berishi shubhasiz. Albatta, bozorni tahlil qilish yuqorida sanab o'tgan uslublardan foydalanishni taqazo qilishi aniqrog'i ushbu uslublar va vositalar uzoq vaqtlar sinovidan o'tib o'zini oqlab kelganligi, chakana investorlar uchun investitsion qarorlar qabul qilishlarida muhim ahamiyat kasb etishi muqarrar. Shuni e'tiborga olish zarurki, chakana investorlar ushbu usullardan qachon va qanday foydalanishni yaxshi o'rganib so'ngra ma'lum instrumentlarga kapital yo'naltirishlari yoki professional bozor ishtirokchilari bo'lgan brokerlar, dillerlar, maslahatchilarning xizmatlaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Annunziata, Filippo and Annunziata, Filippo, Retail Investment Strategy. How to Boost Retail Investors' Participation in Financial Markets (July 7, 2023). Committee on Economic and Monetary Affairs, Policy Department for Economic, Scientific and Quality of Life Policies, European Parliament, Luxembourg, 2023, Bocconi Legal Studies Research Paper No. 4503351, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=4503351>

2. Davis, Ben, "Understanding the Retail Investor: Technical and Fundamental Analysis" (2016). Chancellor's Honors Program Projects. https://trace.tennessee.edu/utk_chanhonoproj/2024

3. Navigating the Rogue Waves: Risk Management in Trading- <https://fastercapital.com/content/Navigating-the-Rogue-Waves--Risk-Management-in-Trading.html#Setting-Risk-Limits-and-Stop-Losses.html>

4. UMESH RINDANI-What is Market Sentiment All About? - <https://in.investing.com>

5. Shrishti Bhardwaj - Portfolio Investing & Management Analysis - <https://www.smallcase.com>

6. Addin, M. M., Nayebzadeh, S., & Yosefi, Z. (2013). Measuring the Financial Literacy of Real Investors of the Iran StockExchange and the Relationship of Financial Literacy with the Portfolio Diversification and their Investment Decisions. *Life Science Journal*, 10(2).
7. Al-Tamimi, H. A. H. (2009). Financial literacy and investment decisions of UAE investors. *Journal of Risk Finance, The*, 10(5), 500-516.
8. Albaity, M. S., & Rahman, M. (2012). Gender, ethnicity, and religion and investment decisions: Malaysian evidence. *Journal of Sociological Research*,3(2), Pages-502. *International Journal of Business and Social Science* Vol. 5, No. 9(1); August 2014 321
9. Banarjee, A.V. (1992) A Simple Model of Herd Behaviour the *Quarterly Journal of Economics*, Vol. 107, No. 3, pp. 797-817
10. Barber, B. M., & Odean, T. (2001). Boys will be boys: Gender, overconfidence, and common stock investment. *Quarterly journal of Economics*, 261-292. Barber, B. M., & Odean, T. (2011). The behavior of individual investors. *Handbook of the Economics of Finance*, 2, 1533-1570.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

